

**TEXNOLOGIK YONDOSHUV ASOSIDA TARBIYAVIY  
TADBIRLARNI TAKOMILLASHTIRISH, MILLIY TIKLANISHDAN  
– MILLIY YUKSALISH SARI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI**

***Sabirova Nodira Ibrohimovna***

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika yo‘nalishi 101-  
guruh magistranti*

*nodirasobirova939@gmail.com*

**ANNOTATSIYA :** *Mazkur maqolada ko‘xna tarix, boy merosga ega xalqmizning shonli o‘tmishi yoritilib, ikki muhim uyg‘onish davriga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek turli istilochilar bosqini sabab boy berilgan salohiyatni mustaqillik tufayli qayta millat taraqqiyotiga yo‘naltirilgan milliy tiklanish davridagi islohotlar qayd etilgan. Bundan tashqari jamiyat hayotida milliy yuksalish g‘oyasi ruhidagi yangilanishlarning mazmun-mohiyati ifodalangan.*

**Kalit so‘zlar:** *milliy tiklanish, qadriyatlar, globallashuv, fuqarolik pozitsiyasi, innovatsiya, taraqqiyot, ilm-fan, buyuk mutafakkirlar, renessans, milliy yuksalish.*

### **KIRISH**

Bugun dunyoda shiddat bilan kechayotgan global o‘zgarishlar, jahon xalqlari va hayotiga daxldor bo‘lib, turfa xil qarashlarni vujudga keltirmoqda. Insoniyat tamom-ila o‘zgacha muhit, yangicha talab va xavf-xatarlar kuchaygan bir sharoitda yashashga to‘g‘ri kelmoqda. Bu kabi holatda uzoq vaqt davomida sinovdan o‘tgan va hayotning turli qiyinchiliklarida toblangan har qaysi xalq va millat birligi, hamjihatligini yanada oshirib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan yurtimizdagi boy moddiy va madaniy meroslarning mavjudligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanganligi, shuningdek nomlari bashariat svilizatsiyasi tarixiga abadiy bitilgan olim-u fuzallolarni yetishtirgan bu ko‘xna zamin azal-azaldan insoniyat tamaddunining beshigi bo‘lib kelgan.

Kadrlar tayyorlash bilan bog'liq joriy va istiqboldagi vazifalar quyidagilardan iborat: Birinchidan, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanning jonkuyari sifatida ijtimoiysiyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish; Ikkinchidan, mamlakatning ijtimoiysiyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shartsharoit yaratilmog'i kerak; Uchinchidan, yosh avlod milliy istiqloq g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zaiurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim. Tabiiyki, bu uzoq davom etadigan, barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarining, eng awalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining faoliyati va pedagogik sohadagi ishlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadigan murakkab jarayondir.

Yoshlarni barkamol qilib yetishtirish jarayonida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish va ta'lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishiga ustunlik berishni ta'minlashdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi — tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirish to'liq darajada amalga oshirilishiga erishish lowww.ziyouz.com kutubxonasi zim. Ta'lim-tarbiya ishida rasmiyatchilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur. Bugungi kunda pedagogikada o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini

Anʻanaviy oʻqitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular oʻzining maʼlum tarixiga ham egadirlar. Yangi munosabatlarning oʻziga xos jihati, anʻanaviy taʼlimdagidan farq qilib, oʻquvchi-talabalarning mustaqilligi va oʻquv faoliyatini taqiqlamasdan, balki ularni belgilangan maqsad sari yoʻnaltirish, oʻquv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va oʻquv-biluv faoliyatiga ongli ravishda yoʻllash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish oʻrniga pedagogik jarayonni samaraii tashkil etish orqali oʻquvchi-talabalarda fan asoslarini oʻrganishga boʻlgan qiziqishni orttirish, shaxsning ehtiyoji, istagi, moyilligi va imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yoʻllariga burish sanaladi. Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga oʻxshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qoʻlaniladigan usul va metodlar toʻplami tushunilib, qoʻyilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul va metodlar majmuasi anglashiladi. y [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Agar metod bilish yoʻli, tadqiqot yoʻli yoki biror faoliyatdagi maʼlum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashning harakatlari, operatsiyalari, usullari majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiya — taʼlim usuli. maʼlum m aʼnoda taʼlim-tarbiya jarayonlari, vositalari. shakl va metodlari majmuasini anglatadi. Pedagogik texnologiyaning anʻanaviy oʻqitish metodikasidan farqlovchi belgilari koʻp. Pedagogik texnologiya anʻanaviy metodikadan. avvalo. maqsadlarning qoʻyilishi va unga erishishi bilan farqlanadi (ilovaga qaralsin). Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari taʼlimning umumiy maqsadlari (oʻqituvchi va talabaning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarni nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi. Loyihalashtirish faoliyati oʻquvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi — oʻqitishni tashkillashtirilish boʻlib, oʻquvchi-talabalar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha koʻrinishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qoʻllash

natijasida loyiha (proekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi.

Talabalarning hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo qiladi. Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Og'zaki-ko'rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, muammoli-unsurli, faoliyatli yondashuvlar

Umuman olganda, jamiyat manfaatlari va istiqboliga mutlaqo zid keladigan bu kabi holatlarga barham berish orqali metin bardoshli xalqimiz iroda ko'rsatib, istiqloq deb atalmish ulug' nematga ega bo'ldi. XX asrning so'nggi choragida sobiq sovet davlatining qulashi natijasida ayrim mamlakatlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi ham 1991-yilda o'z mustaqilligini elon qilib, Xalqaro hamjamiyatning to'laqonli subyektiga aylandi. Har qanday millat, xalq o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan o'zing yashashini va kelajagini ta'minlovchi asoslarini yaratishi ham lozim. Bunday asoslar mustaqillikka erishgan mamlakatning iqtisodiyoti qay tarzda tashkil etilganligi, xalqning qanday huquq va erkinliklarga ega bo'lganligi, davlat hokimiyati qo'lga qanday vakolatlar berilganligi hamda xalqning qanday ma'naviy-madaniy imkoniyatlari borligiga, ularning g'oyaviy mazmuni qanday bunyodkor mafkuralar tizimiga asoslanganligi bilan belgilanadi. Bularning barchasi xalqlarning mustaqil hayot kechirish faoliyatlarining asoslari hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatimizda o'tkazilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli amalga osha oladi. Chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqloq va taraqqiyot yo'lini

sharaf bilan o'ta oladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ota-bobolarimizdan bizga qoldirilgan boy ma'naviy merosni avaylab asrab, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faolligini oshirish - mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir.

Hech bir xalq o'z o'zini anglamasdan milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini avaylab, asrab saqlamasdan turib boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat - izzat bilan qaray olmaydi. Shuning uchun milliy qadriyatlarining tiklanishi, umuminsoniy qadriyatlar sari rivojlanishning yakka-yu yagona yo'lidir.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shu kadar keng imkoniyat ochiladi. Bu hayotiy haqiqatdir. Muxtasar qilib aytganda, milliy tiklanish millat taraqqiyoti tarixining birinchi bosqichida ma'lum bir obyektib va subyektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qayta millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'liq jarayondir. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarmizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining yuksalishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi va tadqiq etilishi, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan bog'liqdir. Tafakkurning o'zgarishi va yuksalishi o'z navbatida milliy g'oyaning xalqimiz ongi va qalbidan qanchalik chuqur joy olayotganligi bilan o'z o'lchanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amalga oshirilgan ko'lami va miqyosi bo'yicha keng mazmundagi islohotlar ijobiy samara berib, milliy taraqqiyotimizda yangi sahifalarni ochmoqda. Bugun biz davlat va jamiyat

hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya, bu - kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak

O‘zbekiston – ulkan tabiiy zahiralari, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Shuning uchun **milliy tiklanishdan – milliy yuksalish** sari borishda iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovatsion asosda rivojlantirish muhim rol uynaydi.

Bugungi kunda dunyoda innovatsion g‘oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma‘naviy salohiyatidir. O‘rta asrlar oralig‘ida yurtimiz xududidan yetishib chiqqan ulug‘ alloma va mutafakkirlar jahon ilmfaniga, butun insoniyat tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan.

Xususan, **IX-XII** va **XIV-XV** asrlarda ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan Sharq Uyg‘onish davri –Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik muhiti mustahkamlanmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar, hayotimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini, xususiyl tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bois ham, innovatsion taraqqiyot bilan xalqimizning an‘anaviy milliy turmush tarzi o‘rtasida o‘ziga xos uyg‘unlikni ta‘minlash orqali O‘zbekistonga xos milliy taraqqiyot modelini yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. Milliy yuksalish g‘oyasi xalqimizning ulkan intellektual va ma‘naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarib, O‘zbekistonning yangi tarixida

uchinchi renessans davrining boshlanishiga xizmat qiladi. Milliy yuksalish bu - millat taraqqiyotining tarixiy jarayoni bo'lib, bunda millat hayotida yangi davrning boshlanishi va rivojlanishi pirovardida yurt obodligi va xalq farovonligini ifodalashdir.

Dunyo xaritasidan o'rin egallagan har bir mamlakat siyosiy barqarorlik, iqtisodiy farovonlikka erishish uchun milliy manfaatlari, hayot tarzidan kelib chiqib o'z qarashlari va yo'nalishlarni belgilaydi. Bugungi tez taraqqiy etayotgan dunyoga moslashish jahon hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlash, xalqaro imijini oshirish qaratilgan amaliy-konstruktiv ruhdagi islohotlarni amalga oshirayotgan O'zbekiston uchinchi renessans ostonasida milliy mentalitetimizga mos ravishda ham ijtimoiy-iqtisodiy ham ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni tizimga solib, xalqni bugunidan rozi qilishga qaratilgan yangilanishlar ro'y beryapti. Joriy yilning 19- yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni keltirib o'tdi: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat." Chindan ham aholi farvonligida iqtisodiy barqarorlik muhim o'rin egallasa, odamlarning ma'rifatli bo'lishi, o'zgarishlarni tahlil qila olishida ma'naviyatning o'rne bo'lakdir." Yangi O'zbekistonyangicha dunyoqarash" xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini ochib beradi. Darhaqiqat barpo qilinayotgan osmono'par binolar, zamonaviy turar-joylar yangi O'zbekistonning yangi qiyofasini ko'rsatadi. Biroq yechimini kutayotgan muammolar, qilinishi kerak bo'lgan ishlar yetarlicha topiladi. Ayniqsa milliy yuksalish g'oyasini aholi, yoshlar qalbi va ongiga singdirishda daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish kerak. Buning uchun oddiy odamlarni qiynaydigan byurokratik omillar, sansalardorlik holatlariga barham

berish lozim. Jumladan sog'liqni saqlash, ta'lim, qurilish sohasidagi korrupsion holatlar rivojlanishning har qanday ko'rinishga to'sqinlik qiladi. Zero aholi salomatligi va farovonligi va mamlakat kelajagi bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagi sohalarda har qanday ko'rinishdagi adolatsizliklarga chidab bo'lmaydi. Albatta, amalga oshirilayotgan islohotlar o'z mevasini asta-sekinlik beradi.

Hozirgi ijtimoiy makonda fuqarolik jamiyati institutlari faolligini oshirish, davlat tashkilotlarida ochiqlik, oshkoralik tamoyillarini joriy qilish, davlat va nodavlat tashkilotlari, hatto xususiy sektorlarni jalb qilish orqali ijtimoiy hamkorlikni sifat jihatdan yaxshilash zarur. Bu esa o'z navbatida milliy yuksalish sari bir yoqadan bosh ko'tarishga turtki beradi. Shuningdek ma'naviy-ma'rifiy sohadagi muammolarni tizimli hal qilishda ilmiy asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirish kerak. Jumladan: ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish; ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash; maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalarni ishlab chiqish davr talabidir.

Yer planetasi atalmish ijtimoiy-siyosiy makonda g'arazli niyatdagi destruktiv kuchlar tomonidan ma'naviy tubanlikka eltuvchi yot g'oyalarning targ'ib qilinishi, uning oqibatida yuzaga keladigan xavf-xatarlarning oldini olish uchun sohadagi ishlarni jonlantirish kerak. Bu bora O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari o'rinlidir: "O'ylaymanki, madaniyat va ma'rifat, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirish zarur. Bu bugun bizning barchamiz uchun hayotiy muhim vazifadir. Yanada ogoh va



sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqmizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir.”

Xulosa qilib aytganda, o'z oldiga ulug'vor maqsadlar qo'yib, innovatsion taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston milliy taraqqiyot manzili sari yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bugungi kunda yurtimizdagi tub o'zgarishlar, faol konstruktiv yangilanishlar jamiyatimiz hayoti, odamlarning ongu tafakkuri o'zgarishiga xizmat qilmoqda. Zotan , murakkab va serqirra jarayon bo'lmish hayot suratlarning tezlashishi har bir kishidan mustaqil fikirlash, mustahkam irodali bo'lish hamda qat'iy faol fuqorolik pozitsiyasini egallashni talab qilmoqda. Milliy yuksalish har bir fuqaroning shaxsiy rivojlanishi, ularning turmush-tarzi yaxshilanishi bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayondir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. **J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiev**, Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik.- Toshkent:2018,188-bet.
2. **Orif Ayupov**, Dunyo Siyosat Jamiyat, “ Ziyo” -2019-191-193 b.
3. **R.X. Ruziyeva** , Milliy g'oya rivojida qadriyatlar tizimi, Toshkent-2020, 25,26betlar.
4. **I.Ergashev, O.Muhammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov**, Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari,©”MASHHUR-PRESS” 2018, 67-bet.
5. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 1tom 52-bet.
7. <https://lex.uz/ru/docs/-5169578>
8. <https://lex.uz/docs/-5344692>
9. **Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz 1-jild,-Toshkent :“O'zbekiston” HMIYU 2018.-298-299 b.